

G'OR TURIZMINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Shukurov I.X

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti,

Uralov Sh.A

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti.

***Annotatsiya:** Maqolada g'or turizmining ahamiyati va undagi joylashuvlar, sohalar bo'yicha keng qamrovli ishlar mavjud ekanligi, g'orlarning mazmuniga ko'ra o'zaro turlari, speleoturistik obyektlarning hududiy tarqalishdagi muamolari keng yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** Speleoturizm, hudud, obyekt, iqlim, joylashuv, yodgorliklar.*

Speleoturizm-turizm to'g'risidagi qonunning 36-moddasida turoperatorlar va turagentlar tomonidan turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlashga doir chora-tadbirlar bo'limida "g'or turizmi va turizmning boshqa maxsus turlarini tashkil etish va o'tkazishda havfsizlikning alohida talablarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari shart" deb belgilab qo'yilgan. Darhaqiqat, g'or turizmi qattiq nazorat va to'la havfsizlikka rioya qilingan holda tashkil etishni taqozo etadi. Binobarin, g'orlar to'la sir sinoatga boy turistik obyekt hisoblanadi.

Rekratsiya va turizm sohalarini rivojlantirishda tabiat muzeylari o'zining alohida diqqatga tortishi, estetik zavq berishi, hayron qoldirishi bilan umumiy ko'rinishdan ajralib turadi. Mintaqada joylashgan muzeylar ichida eng qiziqarli, shu jumladan, muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'lganlaridan biri g'orlar hisoblanadi. G'orlarning inson hayotida muhimligi shundan iboratki, g'orlardan chiqqan suvlarning ko'pligi har xil kasalliklarni davolovchi-shifobaxshlik xususiyati bilan ajralib turadi. Shuni aytish lozimki, g'orlar iqlimi yer yuzidagi biror joy iqlimiga o'xshamaydi. Buning

sababi, g'orlarda turli mikroblar nihoyatda kam bo'lib, tozaligi jihatdan u o'rmon yoki tog' havosiga o'xshaydi. Insonlar g'orlarni ko'rishga borganda g'or ichida o'zini juda yaxshi his qiladi.

G'orlardagi suv har xil bemorlarni, ayniqsa, teri kasaliklarni, buyrak, asab, oshqozon, yurak xastaliklariga duchor bo'lgan bemorlarni darddan qutilishiga yordam beradi. Lekin bunday joylarda davolanish maskanlari va kurortlar barpo etilmagan. Biz bilamizki, g'orlarni yana bir xususiyati sovuqxona vazifasini bajaradi. Qishin-yozin bir xil haroratda bo'ladi. Harorat bir xil bo'lganligi tufayli mahalliy aholi sovuqxona sifatida foydalanib kelgan. Hozirgi iqlim sharoitida g'orlarda go'sht, yog', baliq, sut-qatiqlar, meva va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash imkoniyati yuqori. Shuning uchun ham g'orlarda turli maqsadlarda va yer osti sayohatini yoqtiruvchilar uchun ajoyib manzilgohlar hisoblanadi. Shu jihatdan speleoturizmni tashkil etish va rivojlantirish katta ahamiyatga kasb etadi.

G'orlar mazmuniga ko'ra yesa spelofauna, arxeologik topilma, g'or suvlari, g'or shifobaxsh havosi, g'or uylar, davolovchi g'orlar, kungilochar g'orlardir. Ular katta kichikligiga ko'ra turli masshtabda va yo'nalishda (gorizontal va vertikal xolatda) bo'ladi. G'orlar yer ostida yashiringan tabiiy yoki antropogen topilmalardir. G'orlarni ilmiy va amaliy jihatdan o'rganadigan fan speologiya fanidir. Speloturizm esa uning bir bo'lagi hisoblanadi. G'orlarning kelib chiqishiga ko'ra eng keng tarqalgan turi karst hisoblanadi. Ular ohaktosh, marmar, dolomit, bo'r, gips va tuzli tog'larda keng tarqalgan bo'lib, yumshoq tog' jinslarini suv yuvilishi natijasida karst g'orlari vujudga keladi. G'orlar ichida eng kattasi karst g'orlari hisoblanadi.

Ma'lumki, yurtimizda 7000 dan ortiq tarixiy qadamjolar, me'moriy-arxitektura yodgorliklari mavjud. Ammo hududlarda milliy va xalqaro turizmni rivojlantirishning istiqbolli modeli yaratilmagan. Birgina Samarqand viloyati hududida 1105 ta arxeologik, 60270 ta me'moriy, 37 ta diqqatga sazovor joylar, 18 ta monumental, 21 memorial, jami 1851 ta moddiy-ma'naviy meros obyektlari mavjud. Bu obyektlardan turizm maqsadida samarali foydalanilmayapti. Chunki, obyektlarda infratuzilma shakllanmaganligi va boshqa sabablarga ko'ra turizm maqsadida ishlatilmayapti.

Ko'pgina tabiat yodgorliklari inson xo'jalik faoliyatida foydalanish uchun yem xashak yig'iladigan, mol boqiladigan, tomorqa yerlari sifatida e'tibordan chetda qolib ketgan. Jumladan, tabiatning noyob yodgorliklari hisoblangan Qoratepa tog'ining shimoliy yonbag'ridagi Bulbulzorsoyda joylashgan o'rta tosh davrida odamlar yashagan g'or mavjud.

Tabiatning noyob yodgorliklaridan turizmga keng foydalanish katta samara beradi. Binobarin, inson bu tabiat bilan chambarchas bog'liq mavjudot bo'lib, hamma vaqt uning sir sinoatlari odamni o'ziga ohangrabodek tortib keladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, inson tabiat qo'ynidagi sodir bo'lgan va vujudga kelgan xodisa va jarayonlarni o'rganishga qiziqishi tabiiy xoldir. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar jiddiy tus olgan bir davrda undan oqilona foydalanishning eng samarali yo'li turizm sohasidir. Shuning uchun Yevropa davlatlarida noyob yodgorliklardan turizm maqsadida keng foydalanib kelmoqda. Tabiatning noyob yodgorliklari atamasini ham birinchi bo'lib, fanga mashhur nemis sayyohi, geograf va tabiatshunos olim Aleksandr Gumbold 19-asrda kiritgan.

Speloturistik obyektlar hududiy tarqalishi juda notekis taqsimlangan. Bunga sabab yer osti geologik tuzilishi va orografiyaga bog'liqdir. Biroq dunyo bo'yicha speloturistik resurslar to'liq o'rganilmagan. Turizm rivojlangan mamlakatlarda turizmning bu turiga kata e'tibor qaratgan va mavjud imkoniyatlardan foydalana olgan. Ammo g'orlar ko'p tarqalgan bo'lsada ular turizm maqsadida chuqur o'rganilmagan hududlar nihoyatda ko'pdir.

G'orlarni turizm maqsadida foydalanish Yevropa va Amerika mamlakatlarida yaxshi yo'lga qo'yilgan. Masalan, Slovakiyada Postoin Yama g'orini 170 yildan ortiq vaqt ichida butun dunyodan sayyohlar kelib tomosha qilishadi. Bu g'or 1818 yilda birinchi marta sayohatlar uchun ochilgan. Uning 4 km masofasi elektrlashtirilgan va natijada ertaklardagidek manzara hosil bo'lgan. G'orda juda chiroyli manzarali hosilalar va daryolar bor. 1818 yilda g'orga faqat 104 kishi kirib tomosha qilgan bo'lsa, hozirgi kunda unga yiliga 1 mln ortiq turist keladi. Xatto g'orshunoslarning dunyo bo'yicha o'tkaziladigan seyzdi shu zalda ochilgan va hozirda bu zal «seyzdlar

zali» deb yuritiladi. Bundan tashqari g'orda 10 ming kishilik konsent zali har xil tomosha va konuyentlar berib boradi.

G'orlarni foydali qazilmalar xazinasi, davolovchi maskan hamda turizm xizmati sifatida ahamiyati oshib borish bilan birgalikda ekologik vaziyatini tang ahvolga keltirib qo'yimoqda, g'orlarga tartibsiz kirish ularni landshaftiga katta ziyon keltiradi. Umuman O'zbekistonda ilmiy amaliy va estetik jihatdan ahamiyati katta g'orlarni o'rganib tabiat yodgorliklari deb qarashni maqsadga muvofiq deb bildim.

So'zimning oxirida shuni aytishim mumkinki g'orlarning ilmiy va amaliy ahamiyati juda katta bo'lib yer osti landshaftlarini va ularda sodir bo'layotgan tabiiy jarayonlarni o'rganishni, tabiatdan estetik zavq olishni ko'pchilikni qiziqtirishini hisobga olib, O'zbekistonda hali yaxshi rivojlanmagan speleoturizm, hamda rekreatsion ahamiyani yanada oshirib mahalliy sayyohlardan tashqari chet el sayohatchilarini ham jalb etgan holda g'orlarning ahamiyatini yanada oshirishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдужабборов. М.А. Карст гор Южного Узбекистана. - Т.: 1990. - 112 с.
2. Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник-М.:Аспект Пресс, 2002. - 470 с.
3. Аъзамов С. Тармольнинг ойдин йўли; туризм-жамъарма манбаи //Илтисод ва кисобот 1997, № 11-12 – б. 36-37.
4. Безбородов А. Еще раз о международном туризме //Экономика и статистика, 1998, №3 - с 52.
5. Джумаев Т. Горы Узбекистана, природа, хозяйство, отдых, (Региональные проблемы) -Т.: Меќнат, 1998.- 224 с.
6. Дмитриевский Ю.Д. Туристские районы мира. Учебное пособие.-Смоленск: СГУ, 2000.-224 с.